

## “O‘zbek adabiy tili - tarix silsasida”

*Jumanova Go‘zalxon Qadamboyevna*

*Urganch innovastion universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tillar” kafedrasi o‘qituvchisi*

**Maqolada:** Til-millatning ko‘zgusi sifatidagi ahamiyati, xalq hayotidagi o‘rni, tilning yanada sayqallanishi, badiiyligi, tarixiyli va dunyo miqyosida ahamiyatini, rivojlanib borishi haqida mulohaza yuritiladi.

**Tayanch so‘zlar:** til ta’rixi, o‘zbek alifbosi, lug‘at, hikmatlar, an’ana, Davlat tili  
Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oyinai hayoti -bu uning milliy tili va adabiyotidir.

**Abdulla Avloniy,** Til-millatning ko‘zgusi. Mustaqillik davri tarixiga ko‘ra, tilga e’tibor, uning mavqeyini qonuniy jihatdan mustahkamlab qo‘yish mustaqillikka erishishning dastlabki qadamlaridir .

Ona tilimiz hanuzgacha o‘zining nufuzini yo‘qotmay kelmoqda. Dunyodagi barcha xalqlar o‘zining milliy rasmiy tiliga ega emas. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog‘liq. YuNESKO ma’lumotiga ko‘ra, bugungi kunda har ikki xaftada bitta til yo‘qolib bormoqda. Bu o‘z navbatida o‘sha tilda so‘zlashuvchi xalqlarning yo‘qolishini anglatadi.

Aytish joizki, o‘zbek tili ulkan tarixiy silsilalardan omon o‘tib, milliy o‘zligimizning ulug‘vorligi, matonati va barhayotligini o‘zida aks ettirgan timsol sifatida qadrlanadi. Shu bois el-yutimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib, kurashib kelgan ulug‘vor maqsad-o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi Vatanimiz hayotidagi yuksak voqelik sifatida tarixga muhrlandi.

Ona tilimizning qadr-qimmati, tilimizga hurmat va muhabbat barcha jabhalarda to‘la namoyon bo‘lishi millat kelajagi bilan bog‘liq muhim masaladir. **Abdulla Qodiriy bobomiz “O‘zbek tili kambag‘al emas, balki O‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek to‘nkamasinlar”-degan edi.**

Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgan edi. O'zbek tili va uning davlat tili sifatidagi ahamiyati. 1989-yil 21 - oktabrda "Davlat tili haqidagi" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" gi Qonuni qabul qilindi. "Davlat tili haqida" gi qonunning qabul qilinganligiga bu yil 29-yil to'ldi. Dunyo tillari ichida nufuziga ko'ra o'zbek tili 41-o'rinda turadi. Yurtimizda mustabid tuzum hali o'z hukmini o'tkazib turgan g'oyat og'ir sharoitda xalqimizning taqdiri va kelajagini hal qiladigan bu qonunni qabul qilish biz uchun oson kechmagan edi. Qonun loyihasi ikki marta umumxalq muhokamasiga qo'yilgan edi.

O'tgan shu davrda ona tilimizning yanada sayqallanishi, badiiyligi, tarixiyli va dunyo miqyosida ahamiyati hamda nufuzini oshirishga qaratilgan qator madaniy, ma'naviy – ma'rifiy, mafkuraviy ijro, izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Natijada, bugungi kunda jahondagi ko'plab mamlakatlar xalqlari davlatimiz ramzlari – O'zbekiston Respublikasi bayrog'i, gerbi, davlat madhiyasi qatorida o'zbek tiliga ham hurmat bilan qarab, nafis va boy til sifatida yuksak baho berib kelmoqdalar. Har yili 21-oktabr kuni mamlakatimizda til bayrami sifatida keng nishonlanishi an'anaga aylanib qolgan.

Chunki mamlakatimizda ona tilimizni yanada rivojlantirish va takomillash tirish, uning milliy ruhini oshirish, madaniyat va san'atni yuksak pag'onalarga ko'tarish, shuningdek, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish sohasida qabul qilingan Davlat dasturi ijrosini ta'minlashdek, ustuvor yo'nalishdagi vazifalarni bajarish tom ma'noda kundalik hayotimizda chuqur singib bormoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda o'zbek adabiy tilini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida o'zbek tili davlat tili, davlat ramzi, milliy madaniyat va ma'naviyatni ifodalovchi hamda ularni kelajak

avlodga yetkazuvchi muhim muloqot vositasi darajasiga ko'tarildi. O'zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzi oshib, faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda.

Turli darajadagi rasmiy uchrashuvlar, muzokaralarda tilimiz keng qo'llanilayotgani, xorijdagi ko'plab universitetlar, ilmiy muassasalarda o'zbek tili markazlari tashkil etilib, ularda ona tilimizni o'rganishga qiziquvchilar safi ortib bormoqda. O'zbekistonda nafaqat o'zbek tili, balki boshqa millat va elatlarning tillari, urf – odatlari hurmat qilinishi milliy qonunchiligimizda aks etgan .

Uning amaliy isbotini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-modda sidagi quyidagi norma misolida ko'rish mumkin: “ O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf – odatlari va an'analari hurmat qilinishi ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”.

Prezidentimiz **Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek**, kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin. Ona tilimiz – milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir.

Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir. Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin. Ona tillarining tarqalishini keng targ'ib qilish faqatgina tillar xilma-xilligi va ko'p tilda ta'lim olish yoki jahon tillari va madaniy an'analar bilan yaqindan tanishish bilan chegaralanib qolmaydi, balki ular o'zaro tushunishga asoslangan birdamlikni kuchaytiradi.

O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi va uning tizimidagi aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlar, korxonalar, tashkilot va muassasalar ta’sisligida tashkil etilgan “Aloqa va axborotlashtirish sohasi tarixi va merosi jamoat fondi” faoliyatida ham yuqorida ko‘rsatilgan qonunlarning ijrosini ta’minlash yuzasidan qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda .

Ona tili — millat ma’naviyatining mustahkam poydevoridir. Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, **har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oyinai hayoti -bu uning milliy tili va adabiyotidir.** Shu ma’noda dunyo hamjamiyatidan munosib o‘rin egallashni maqsad qilib qo‘ygan har qaysi davlat o‘z xalqining milliy tili va madaniyatini asrab-avaylashga, rivojlantirishga intiladi.

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan tub islohatlarning markazida iqtisodiy islohatlar bilan bir qatorda ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy – siyosiy va huquqiy islohotlar turganligi o‘z samarisini bermoqda.

Mavlono Jaloliddin Rumiy *“Qalb dengiz, til qirg‘oqdir. Dengizda nima bo‘lsa, qirg‘oqqa o‘sha kelib uriladi”* deya tilning inson, millat hayotida naqadar muhim o‘rin tutishini bashariyatga yana bir bor eslatib qo‘ygan. O‘zbekistonni jahon madaniyati, ma’naviyati, ma’rifatining o‘choqlaridan biriga aylantira olgan buyuk ajdodlarimiz bunga ona tilimiz imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, dunyoga o‘z so‘zini ona tilida aytish orqali erishgan. Zero, millatimiz ma’naviyati, o‘zida umuminsoniy qadriyatlar bilan sug‘orilgan yuksak madaniy-ma’rifiy g‘oya va qarashlarni ifoda etadi

Ayniqsa, mamlakatimizning ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishida, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining tobora shakllanishida, inson tafakkurining o‘zgarishida fan, ta’lim, madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat, shuningdek, o‘zbek tili va til madaniyatining rivojlanishi xalqimizning avloddan – avlodga o‘tib kelayotgan tarixiy urf – odatlari, udumlari, an’analari, tartib – qoidalar, turmush tarzi va azaliy qadriyatlarning asosiy mezoni sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda.

Ishonchimiz komilki, o‘zbek tili va madaniyati jahon sivilizatsiyasida yanada ravnaq topib, uning purma’noligi, jozibadorligi, talaffuzi ohangli musiqadai jarangdorligi bilan jahon ahlini o‘ziga rom qila oladigan xalqaro til darajasida ko‘tariladi va dunyo xalqlari bu tilni sevib o‘rganib, samimiy hurmat qiladilar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Muxtarov A.Sanaqulov U. “O‘zbek adabiy tili tarixi” Toshkent.1995.
2. H.Ne‘matov “O‘zbek tili va adabiyoti” Jurnal. Toshkent. 1992.
3. Sh.Rahmatullayev. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent. 1992.
4. Karimov S. “O‘zbek tilining badiiy uslubi” SAMDU.1992.
5. Qurbonova M.M, “Hozirgi zamon o‘zbek tili” Toshkent. 2002.
6. Madrim Hamrayev “Ona tili” qo‘llanma. Toshkent. 2011.